

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.26/30.12.2019.T.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

OBIDJONOV JAHONGIR TOXIR O'G'LI

MONOLIT QURILISH UCHUN FIBROBETONLARNING SAMARADOR
TARKIBLARINI ISHLAB CHIQISH

05.09.05 - Qurilish materiallari va buyumlari

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent–2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on technical sciences**

Obidjonov Jahongir Toxir o'g'li

Monolit qurilish uchun fibrobetonlarning samarador tarkiblarini ishlab
chiqish.....5

Обиджонов Жахонгир Тохир угли

Разработка эффективных составов фибробетона для монолитного
строительства.....22

Obidjonov Jakhongir Toxir ugli

Development of effective fibre-reinforced concrete compositions for monolithic
construction.....42

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.26/30.12.2019.T.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

OBIDJONOV JAHONGIR TOXIR O'G'LI

MONOLIT QURILISH UCHUN FIBROBETONLARNING SAMARADOR
TARKIBLARINI ISHLAB CHIQISH

05.09.05 - Qurilish materiallari va buyumlari

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T3401 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)), Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.taqu.uz va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raximov Shavkat Turdimurotovich

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Bahodirov Azizbek Abdulazizovich

texnika fanlari doktori, professor

Majidov Samariddin Rashid o'g'li

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "6" may soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 9a- uy. Tel.: (+99855) 508-02-95; faks: (+99855) 508-03-12, e-mail: devon@taqu.edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 142-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi 9a-uy. Tel.: (+99855) 508-02-95; faks: (+99855) 508-03-12, e-mail: taqi_atm@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "16" aprel kuni tarqatildi.
(2025 yil "4" fevraldagi 52-raqamli reestr bayonnomasi).

X.A. Akramov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi
texnika fanlari doktori, professor

I.I. Siddiqov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

B.A. Askarov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qurilish sanoatining rivojlanishi bilan birga yuqori mexanik mustahkamlikka ega, yoriqbardoshli va umrboqiy bo'lgan qurilish materiallarini va beton turlarini ishlab chiqarishda resurs tejankor texnologiyalardan samarali foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda «...energiya tejankor qurilish materiallari ishlab chiqarish yiligi 30% ga o'sib kelmoqda, shundan ishlatiladigan betonning ulushi 70% ni tashkil etmoqda. 2030 yilga kelib, beton ishlab chiqarishning 43% dan ortig'ini fibrobeton tashkil etishi belgilangan»¹. Bu borada, jumladan urbanizatsiya, iqlim o'zgarishi va seysmik faollikning kuchayishi sharoitida ekspluatatsiya talablariga javob beradigan, ekologik xavfsiz, energiya tejankor va iqtisodiy samarador bo'lgan dipers armaturalangan betonlar tarkiblarini ishlab chiqish va qurilishda keng qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda dipers armaturalangan betonlar tarkibini mahalliy xom ashyolardan, kimyoviy qo'shimchalar va tolalardan foydalanib optimallashtirish, fizik-mexanik xossalarini yaxshilash hamda qorishmalarda struktura hosil bo'lishini maqsadli boshqarishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, monolit qurilish uchun fibrobetonlarning optimal tarkiblarini ishlab chiqish, fizik-texnik xossalarini tadqiq etish, vaqt bo'yicha bardoshlilikini va uzoq muddatga chidamliligini, samaradorligini oshirish, ularni tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, fibrobeton olish uchun mahalliy xom ashyo materiallarini tanlash va asoslash, kimyoviy qo'shimchalarning betonning fizik-mexanik xossalariga ta'sirini hisobga olish hamda armaturalovchi tolalarning miqdoriy tarkibi va geometrik o'lchamlarini hisobga olgan holda fibrobetonning optimal parametrlarini aniqlash dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda qurilish materiallari sanoatida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ishlab chiqarishni takomillashtirish va rivojlantirish, mahalliy xomashyo manbaalaridan kompleks va ratsional foydalanishga bog'liq holda keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «...qurilish materiallari sanoati mahsulotlarining yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish, shu jumladan, zamonaviy uslubda.....boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish,...iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishda energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish,...»² bo'yicha vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan, qurilishda beton turlarini keng ko'lamli qo'llash, mahalliy xom ashyolardan foydalanib, belgilangan xossa va ko'rsatkichlarga ega bo'lgan fibrobeton tarkibini va tayyorlash texnologiyalarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

¹ <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/fiber-reinforced-concrete-frc-market>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23-maydagi PQ-4335-sonli "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2022-yil 21-fevraldagi PQ-139-son "Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2023-yil 25-dekabrda PQ-404-son "2024-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2024-yil 17-apreldagi PQ-161-son "Bino va inshootlarning seysmik bardoshligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari, 2020 yil 13 martdagi PF-5963-son "O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020 yil 27 noyabrda PF-6119-son "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 – 2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi»gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Monolit qurilish uchun samarali fibrobeton kompozitlarini ishlab chiqish muammosi so'nggi yillarda ilmiy jamoatchilikning diqqat markazidadir. Xalqaro miqyosda har xil turdagi dispers tolalarning fibrobetonning mexanik xossalari ta'sirini o'rganishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan, jumladan Bajenov Yu.M., Backer S., Batson G.B., Bocharnikov A.S., Volkov Y.V., Gulimova Y.V., Jozef L.L., Krenchel H., Lankard D., Li V.C., Lim Y.M., McGarry F.J., Malishev V.F., Mandel J.A., Nekrasov V.P., Naaman A.E., Puxarenko Yu.V., Rabinovich F.N., Rangan V.B., Romualdi J.P., Romanov V.P., Swamy R.N., Stavrides H., Shah S.P., Weakley R.D., Etheridge H., va boshqalar muhim natijalarga erishganlar.

Monolit beton texnologiyasini ishlab chiqishda erishilgan yutuqlar ko'plab taniqli olimlar va muhandislarning ishlari bilan bog'liq: Abramov L.I., Alekseev K.V., Axverdov I.N., Bajenov Yu.M., Besser Ya.R., Vavilov M.V., Gershanovich G.L., Gershberg O.A., Gordon S.S., Goroxov V.V., Desov A.E., Dorf B.A., Zinchenko N.A., Krilov B.A., Malinskiy E.N., Medvedev V.M., Mironov S.A., Miklashevskiy E.P., Osipov A.D., Petrov G.D., Sikranov A.N., Sizov B.V., Sovalov G., Sudakov V.B., Tilles R.S., Topchia V.D., Shestoporov S.V., Shtaerman Yu.Ya., Shkarin V.P. va boshqalar.

Yurtimiz olimlaridan Akramov X.A., Asqarov B.A., Ashrabov A.A., Gaziev U.A., Kamilov X.X., Miraxmedov M.M., Maxamatalliev I.M., Odilxo'jaev A.I., Qosimov E.U., Samig'ov N.A., Toxirov M.Q., Teshaboev R.D., To'laganov A.A., Turovov M.T., Xodjaev S.A., Xasanov B.B. beton va uning turlari bo'yicha, hamda

Muxamedbaev A.A., Yulchiev R.A., Razzoqov S.J. va boshqalar metall va bazalt tolalari asosidagi fibrobetonlar ustida tadqiqotlar olib borib, turli yillarda o'z tadqiqotlari asosida muhim ilmiy va amaliy natijalarga erishganlar.

Fibrobetonlarni o'rganishda sezilarli yutuqlarga erishilganiga qaramay, ularning tarkibini optimallashtirish, jumladan, tolalarning optimal turini, ularning miqdoriy tarkibi va mexanik xossalarini tanlash vazifalari to'la hal etilmagan. Shuningdek, ma'lum iqlim va ekspluatatsiya sharoitida bunday materiallarning umrboqiyli va fizik-mexanik xossalarini batafsilroq o'rganish masalalari yetarli darajada o'rganilmaganligini va yanada kengroq tadqiq qilishni talab etayotganligini ko'rsatmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura-qurilish universitetining IL-722209824 "Bazalt, metall va shisha asosidagi, standartlarga javob beradigan va yuqori fizik-mexanik xossalarga ega tolali temir-beton ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish" (2023-2024) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi monolit qurilish uchun samarador fibrobeton tarkibini optimallashtirish va xossalarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dispers armaturalangan fibrobeton olish uchun mahalliy xom ashyo materiallarini tanlash va asoslash;

bazalt va polipropilen tolalari, superplastifikatorning betonning fizik-mexanik xossalariga ta'sirini tadqiq etish;

armaturalovchi tolalarning miqdoriy tarkibi va geometrik o'lchamlarini hisobga olgan holda fibrobetonning optimal parametrlarini aniqlash;

turli tolalar asosida fibrobeton qorishmalar tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish;

monolit qurilish uchun ishlatiladigan fibrobeton tarkiblarini aprobatsiyasidan o'tkazish va iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida bazalt va polipropilen tolali va superplastifikator asosidagi fibrobeton olingan.

Tadqiqotning predmetini bazalt va polipropilen tolalar bilan armaturalangan fibrobetonning fizik-mexanik, fizik-kimyoviy va texnik-iqtisodiy parametrlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullaridan, struktura hosil bo'lishini rentgen-fazali, elektron-mikroskop tahlili, bazalt va polipropilen tolalari asosida olingan fibrobetonlarning sifat ko'rsatkichlari va xossalarini o'rganishning standartlashtirilgan usullaridan hamda fibrobeton qorishma tarkibini optimallashtirishni matematik usullaridan va eksperimentlar natijalarini statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

fibrobetonning egilishga va siqilishga bo'lgan mustahkamligi tolalarning uzunligi va miqdoriga bog'liqligini ifodalovchi matematik model ishlab chiqilgan;

fibrobetonning fizik-mexanik xossalarini yaxshilash uchun komponentlarni qo'shishning turli ketma-ketliklarga ega bo'lgan qorishmalarni tayyorlashning

texnologik sxemalari ishlab chiqilgan, natijada tolalarning beton matritsa hajmi bo'ylab bir jinsli taqsimlanishi ta'minlangan;

beton matritsasi bilan o'zaro ta'siri jarayonida tolalarning tuzilishi va sement gidratatsiyasida hosil bo'lgan ishqoriy muhitning ta'siri natijasida bazalt tolalarining to'yingan Ca(OH)_2 eritmasiga nisbatan 2M NaOH eritmasida sezilarli darajada ko'proq korroziyaga uchraganligi aniqlangan;

fibrobetaonlarning fizik-mexanik xossalari tolalar va superplastifikatorning kompleks ta'siri hisobiga oshirilgan va harakatchanligi vaqt davomiyligida saqlanishi ta'minlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

superplastifikator va tolalarni qo'llash orqali xossalari bo'yicha me'yoriy talablarga javob beruvchi monolit qurilish uchun samarali fibrobetaon ishlab chiqarish mumkinligi ko'rsatib berilgan;

fibrobetaonlarni tayyorlashning texnologik parametrlari optimallashtirilgan, komponentlarni qo'shish ketma-ketligi va armaturalovchi tolalarni tarqalish usullari orqali beton matritsasida bir xil taqsimlanishi va qorishmaning bir jinsliliigi ta'minlangan;

tolalarning uzunligi, diametri, hajmiy tarkibining va superplastifikatorning fibrobetaonning mexanik xossalari ta'sir qilish qonuniyatlari o'rganilgan, betonning maksimal mustahkamligini ta'minlaydigan parametrlari aniqlangan;

korrelyatsion-regressiv tahlil asosida fibrobetaonning xossalari va tarkibi orasidagi bog'liqlik va bog'lovchilar sarfini kamaytirish bo'yicha optimallashtirish modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarini ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlarning zamonaviy vositalar va standart usullardan foydalangan holda o'tkazilganligi, tajribalarning qurilish me'yor va qoidalari asosida amalga oshirilganligi, tajriba va nazariy tadqiqot natijalarining o'zaro mutanosibliigi, hamda ishlanmaning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati armaturalovchi tolalarning sement matritsasi bilan o'zaro ta'siri, ularning geometrik parametrlari va hajmiy tarkibining fibrobetaonning fizik-mexanik xossalari, shu bilan birga qotish sharoitida uning fizik-texnik xossalari, sifat ko'rsatkichlariga va umrboqiyiligiga ta'sirini o'rganish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bino va inshootlarning monolit qurilishida ishlatiladigan beton tarkiblari va ularni tayyorlashning texnologik jarayonlarini tanlash, shu jumladan mustahkamlik, yoriqbardoshlilik va umrboqiylikni sezilarli darajada oshirish, shuningdek ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, tolaning yoyilish jarayonlarini optimallashtirish va samarali modifikatsiya qiluvchi qo'shimchalardan foydalanish, qurilish amaliyotiga ommaviy joriy etish, konstruksiyalarning ishonchliligini oshirish va bu borada, mahalliy xomashyolar, superplastifikator va tolalardan foydalanib samarali fibrobetaon tarkiblarini ishlab chiqishga xizmat qilishidan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Monolit qurilish uchun fibrobetonlarning samarador tarkiblarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

portlandsement, chaqiq tosh, qum, basalt va polipropilen tolalari va superplastifikator asosidagi fibrobetonlarning ishlab chiqilgan tarkibi, uni tayyorlash texnologiyasi "DSK BINOKOR" MChJ da (2024 yil 15 avgustdagi dalolatnoma) joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024 yil 23 oktyabrdagi 24-06/10693-sonli ma'lumotnomasi). Natijada fibrobetonning siqilishga mustahkamligini 38,8-39,8 MPa dan 50,49-57,48 MPa gacha oshirish, qorishmaning harakatchanligini P1 dan P5 gacha oshirish, suvga talabchanligini 25-30 % gacha kamaytirish, qorishmalarni quvurlarda jo'natishni tezlashtirish imkonini bergan;

«Monolit qurilish uchun og'ir fibrobeton tarkibini hisoblash va modellashtirish» kompyuter dasturi "Kommunal LITI" davlat muassasasida (2024 yil 18 martdagi dalolatnoma) joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024 yil 23 oktyabrdagi 24-06/10693-sonli ma'lumotnomasi). Natijada fibrobetonning suvga talabchanligini 25% ga kamaytirishga, siqilishga mustahkamligini oshirishga hamda an'anaviy betonga nisbatan 27–38% iqtisodiy samaradorlikka erishilgan;

portlandsement, chaqiq tosh, qum, basalt va polipropilen tolalari va superplastifikator asosidagi fibrobetonlarning optimal tarkibi "STROYTEST SERVICE" ATL MChJ da (2024 yil 13 avgust) va "SINOV SERTIFIKAT SERVIS" ATL MChJ korxonasida (2024 yil 3 avgustdagi dalolatnoma) laboratoriyalarida sinovdan o'tkazilgan va joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024 yil 23 oktyabrdagi 24-06/10693-sonli ma'lumotnomasi). Natijada fibrobetonlarning mustahkamlik ko'rsatkichlari yaxshilangan, qorishmaning harakatchanligini P1 dan P5 gacha oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari, 6 ta xalqaro va 2 ta respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola: jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Bundan tashqari 1 ta hisoblash dasturi uchun (№ DGU 27940, 09.10.2023) guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida bajarilgan dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga mosligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda tadqiqot obyekti va predmeti keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ifodalangan, tadqiqot ishlari natijalarining ishlab chiqarishga tadqiqot etilganligi ta'kidlangan, tadqiqot ishlari natijalarining aprobatsiyasi haqida ma'lumotlar va dissertatsiya mavzusi bo'yicha chop etilgan ilmiy maqolalar, shuningdek, dissertatsiya strukturasi va hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Monolit qurilish uchun fibrobeton sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning hozirgi holati va istiqbollari”** deb nomlangan birinchi bobida qurilishda fibrobetondan foydalanishning hozirgi holati va istiqbollari batafsil ko'rib chiqilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, beton matritsalarini metall, bazalt, shisha va polimer tolalar bilan mustahkamlash ularning fizik-mexanik xossalarini, jumladan, mustahkamligini, yorilishga bardoshligi va tashqi ta'sirlarga chidamliligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Materialning yuqori ekspluatatsion xossalariga erishishning asosiy omili bo'lgan qorishmaning umumiy hajmida tolalarning bir xil taqsimlanishi muammosiga alohida e'tibor qaratildi. Mavjud asbob-uskunalarini moslashtirish va beton qorish usullarini takomillashtirish orqali tolalarning, ayniqsa, bazaltning bir xil taqsimlanishiga erishish mumkinligi aniqlandi.

Yetakchi mahalliy va xorijiy olimlar, jumladan, Jozef L.L., Naaman A.E., Ann Arbor, Romualdi J.P., Batson G.B., Mandel J.A., Weakley R.D., Etheridge H., Lankard D., Krenchel H., Shah S.P., Rangan V.B., McGarry F.J., Swamy R.N., Stavrides H., Nekrasov V.P., Bajenov Yu.M., Bocharnikov A.S., Volkov Y.V., Puxarenko Yu.V., Gulimova Y.V., Rabinovich F.N., Romanov V.P., Malishev V.F., Wang Y., Backer S., Li V.C., Lim Y.M., Wu H.C., Muxamedbaev A.A., Yulchiev R.A., Razzoqov S.J. va boshqalar iqlim va ekspluatatsion talablarni hisobga olgan holda fibrobeton ishlab chiqarish texnologiyasi va tarkibini optimallashtirishga qaratilgan keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'ldi.

Binobarin, birinchi bobda keltirilgan tahlil betonning mustahkamligi, yorilishga bardoshliligi va umrboqiyiligini oshirish uchun armaturalovchi tolalarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ushbu bob xulosalari asosida tadqiqotning ishchi gipotezasi, maqsadi va vazifalari belgilab olindi.

Ishchi gipoteza. Fibrobetonning umrboqiyiligini va samaradorligini oshirish uning optimal tarkiblari va tayyorlashning ratsional texnologik rejimlari orqali erishish mumkin, bu beton ishqoriy muhitining bazalt tolasiga agressiv ta'sirini kamaytiradi va materialning fizik-mexanik xossalarini yaxshilaydi.

Dissertatsiyaning **“Foydalanilgan materiallarning xossalari va tadqiqot usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida, amaldagi materiallarning xossalari keltirilgan va tadqiqot usullari tavsiflangan. Eksperimental tadqiqotlarni o'tkazishda AJ «Ohangaronsment» va AJ «Bekobodsement» tomonidan ishlab chiqarilgan ЦЕМ I 42,5H klassli sement qo'llanildi. Mayda to'ldiruvchi sifatida yiriklik moduli

$M_{kr}=3,29$ bo'lgan Chirchiq daryosi karyerining qumi, yirik to'ldiruvchi sifatida o'lchamlari 5-10 mm va 10-20 mm bo'lgan, maydalanish bo'yicha markasi M1200 GOCT 8267-97 talablariga javob beradigan shag'al asosidagi chaqiqtoşhdan foydalanildi. Ishning eksperimental qismida fibrobeton qorishma plastikligini oshiruvchi qo'shimcha sifatida polikarboksilat asosidagi Sika ViscoCrete-SF 18 va polikarboksilat va lignosulfat asosidagi Mixfor FlowCrete 49/2 superplastifikatorlari ishlatildi.



1-rasm Tolalarning to'liq o'lchamli va SEM ($\times 100$) kattalashtirilgan tasviri: a) polipropilen tolasi; b) bazalt tolasi.

Armaturalovchi tolalar sifatida Jizzax viloyati Forish konining basalt toşidan olingan bazalt tolasi ishlatildi. Tolalarning o'rtacha diametri – 17 mkm, tolalar uzunligi – 6-18 mm, uzilishdagi mustahkamlik chegarasi – 1350 MPa, harorat qarshiligi 600 °C va MChJ “Fibromiks” tomonidan ishlab chiqarilgan polipropilen tolalari, tolalarning o'rtacha diametri – 20 mikron, tola uzunligi – 6-18 mm, uzilishdagi mustahkamlik chegarasi – 550 MPa, harorat qarshiligi - 160 °C (1-rasm).

Fibrobeton xossalarini o'rganish mikrostrukturani tahlil qilishning zamonaviy usullari, jumladan, yuqori aniqlikdagi skanerlovchi elektron mikroskopda va kristall tarkibini aniqlash uchun rentgen-fazali tahlil yordamida amalga oshirildi. Fibrobetonning siqilishga va egilishga bo'lgan mustahkamligi kabi fizik-mexanik xossalari GOCT 10180 talablariga muvofiq standart namunalarda aniqlandi.

Fibrobeton tarkibida tolalarning bir xil taqsimlanishiga alohida e'tibor qaratilib, bunda namuna olish va tahlil qilish, so'ngra quritish usullari bilan baholandi. Betonning muzlashga chidamliligi, suv o'tkazmaslik va ishqalanishga qarshiligini aniqlash uchun sinov ishlari bajarildi, bu bilan ekspluatatsion xossalarini har tomonlama o'rganish ta'minlandi. Fibrobeton qorishmalarining harakatchanligi va ularning suvni ushlab qolish xossasi standart usullar yordamida o'rganildi, bu ularning texnologik ko'rsatkichlarini tavsiflash imkonini berdi.

Dissertatsiyaning **“Monolit qurilish uchun fibrobeton qorishma tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish va bazalt tolaning korroziyaga bardoshligini aniqlash”** deb nomlangan uchinchi bobida fibrobeton tayyorlash sohasidagi ishlar asosida fibrobeton qorishmalarini tayyorlash texnologiyalari keltirilgan.

Standart qorishtirish usullari tolalarning bir xil taqsimlanishini ta'minlamasligi, aglomeratsiyaga olib kelishi va mustahkamlik xossalarining pasayishi eksperimental ravishda aniqlandi. Tadqiqotda turbulent va rotorli qorishtirgich ishlatildi. Turbulent qorishtirgich tolalarning samarali yoyilishini ta'minladi, lekin ularning shikastlanish xavfini oshirdi, rotorli qorishtirgich esa

nisbatan pastroq yoyilish bir xilligi bilan yengil qorish mumkinligini ko'rsatdi. Komponentlarni kiritishning turli ketma-ketliklari va qorishtirish rejimlariga ega bo'lgan materiallarni yuklashning to'rtta sxemasi ko'rib chiqildi (1-jadval).

Birinchi sxema: dastlab quruq qorishtirish uchun qorishtirgichga to'ldiruvchi va sement yuklanadi, keyin superplastifikator bilan suv qo'shildi va qorishtirish davom etdi. Bazalt tolalari asta-sekin kiritilib, ularning bir tekis taqsimlanishiga erishildi.

Ikkinchi sxema: barcha quruq komponentlar – to'ldiruvchi, sement va bazalt tolalari - bir vaqtning o'zida yuklandi va quruq holda qorishtirildi. Keyin plastifikator bilan suv qo'shildi va jarayon davom ettirildi.

Uchinchi sxema: dastlab quruq qorishtirish uchun to'ldiruvchilar va tolalar qo'shildi, keyin sement qo'shildi va davom ettirildi. Keyin plastifikator bilan suv qo'shildi va qorishma aralashtirildi.

To'rtinchi sxema: tolalar superplastifikator bilan suvning bir qismida oldindan taqsimlandi, ularning bir xil taqsimlanishiga erishildi. Keyin quruq qorishtirish uchun qorishtirgichga sement va qum qo'shildi, undan so'ng tolali suv qorishmasi qo'shildi va uch daqiqa davomida aralashtirildi.

Tadqiqot mayda donali va og'ir betonda, sement massasiga nisbatan 5% miqdorda tolalar qo'shilgan qo'shimchali va qoshimchasiz fibrobeton tarkiblarida amalga oshirildi.

1-jadval

Qabul qilingan sxemalar bo'yicha fibrobeton tayyorlash bosqichlari

Sxema №	Bosqichlari				Jami
1	Komponentlar	S+Q	Suv+Qo'	FT	
	Qorish vaqti	30 sek	60sek	90sek	3,0 min.
2	Komponentlar	Q+S+FT	Suv	Qo'	
	Qorish vaqti	60sek	60sek	30sek	2,3 min.
3	Komponentlar	Q+FT	S	Suv+Qo'	
	Qorish vaqti	30 sek	30sek	90sek	2,3 min.
4	Komponentlar	Suv+Qo'+FT	S+Q	SQo'FT	
	Qorish vaqti	60sek	30sek	90sek	3,0 min.


Bu yerda: S-ement; Q-qum; Qo'-qo'shimch; FT-fibrotola.

BCH 56-97 talablariga muvofiq, beton qorishmadagi armaturalovchi tolalarning taqsimlanishining bir xillik darajasi 10% dan 15% gacha bo'lgan o'zgaruvchanlik koeffitsienti (U) miqdoriy qiymati bilan hisoblandi. Ushbu parametrning qiymatlari qorishmaning yetarli darajada bir jinslilikini va beton matritsadagi tolalarning fazoviy taqsimlanish barqarorligini ko'rsatdi.


Beton matritsasi hajmida bazalt tolalarning yoyilishi qabul qilingan qorish sxemasi va qorishmaning tarkibiga qarab o'zgarishi aniqlandi. Biroq, o'zgaruvchanlik koeffitsienti (U) qiymati bilan belgilanadigan bir jinslilik mezonlari o'rganilgan tarkiblarda 15% dan oshmadi, bu esa me'yoriy talablarga javob berdi va dispers armaturalovchi tolalarning yoyilishining yetarli bir xilligini ko'rsatdi (2 va

3-rasmlar).

Fibrobetonning xossalarini tadqiq etishda uchinchi qarish sxemasi (U-8,0%) tanlandi, bunda, birinchi va to'rtinchi sxemalarga (U-13,0-13,8%) nisbatan qarishmaning hajmi bo'yicha tolalarning yoyilishi bir xilligining yuqori darajasi ta'minlandi. Ikkinchi tarkibda qarishning uchinchi sxemasini qo'llash, basalt tolallarini to'plamlarini alohida tolalarga yoyilishga yordam berdi, xolbuki, birinchi tarkibni qarish jarayoni tugagandan so'ng tolalarning yoyilishi bilan birga qisman tolalar top'lanishini ham saqlab qoldi (4-rasm).



2-rasm. 2-sxema bo'yicha fibrobeton tayyorlash bosqichlari blok sxemasi




3-rasm. 3-sxema bo'yicha fibrobeton tayyorlash bosqichlari blok sxemasi



4-rasm. Bazalt tolasining taqsimlanishi: a) 1-tarkib; b) 2-tarkib

Sementning gidratsiyasi jarayonida yuzaga keladigan ishqoriy muhitni tadqiq qilish uchun $\text{Ca}(\text{OH})_2$ (pH 12,4) va 2M NaOH (pH 13,6) ning to'yingan eritmalari ishlatildi. NaOH eritmasining ta'siri bazalt tolalarining kuchli degradatsiyasiga olib keldi, sirt qatlamlarini yemirilishi va SEM usuli bilan aniqlangan sharsimon korroziya zarralarini hosil bo'lishi kuzatildi (5-rasm). Tolalarning massasi 64 kun ichida 0,39 g ga kamaydi, $\text{Ca}(\text{OH})_2$ eritmasida esa yo'qotishlar 0,27 g ni tashkil etdi, bu muhitning past agressivligini ko'rsatdi.

Tolalar massasining eritma hajmiga nisbati 1:100 foydalanish pH o'zgarishlarini minimallashtirish orqali barqaror muhit parametrlarini ta'minladi. Olingan natijalar esa bazalt tolalarining korroziya darajasi to'g'ridan-to'g'ri muhitning konsentratsiyasi va kimyoviy faolligiga bog'liq ekanligini, bu tolali betonlarning chidamliligini bashorat qilishda hisobga olinishi kerakligini ko'rsatdi.




5-rasm. Bazalt tolasiga kaltsiy gidroksidi va natriy gidroksid eritmasida ishlov berilgandan keyingi ko'rinishi

Dissertatsiyaning “**Monolit qurilishda qo'llaniladigan fibrobeton tarkibini modellashtirish va optimallashtirish**” deb nomlangan to'rtinchi bobida bazalt va polipropilen tolalar bilan dispers armaturalangan mayda donali va og'ir fibrobeton tarkiblarini, fizik-mexanik, fizik-texnologik xossalari va dispers armaturalash samaradorligini oshirish uchun optimallashtirish bo'yicha eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotda qo'shimcha turining optimal miqdori, tolalarning uzunligi (bazalt va polipropilen tolalar 6, 12 va 18 mm) va hajmiy miqdorining betonning fizik-mexanik xossalari ta'siri o'rganildi.

Turli superplastifikatorlarning samaradorligini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, eng yuqori samaradorlik "Sika SF18" va "Mixfor FlowCrete 49/2" tomonidan ko'rsatilgan, optimal miqdorlari mos ravishda sement massasiga nisbatan 0,8% va 1% qo'llaganda mini konus yoyilish diametri 220mm va 221mm ko'rsatdi. Olingan natijalar ushbu superplastifikatorlarning fibrobeton texnologik xossalari yaxshilashi bilan birga beton qorishmalarining zarur harkatchanligini ta'minlashini va samaradorligini tasdiqladi.

ЦЕМ I 42,5H sementning rentgen diffraktogramma tahlili xarakterli klinker fazalari, jumladan, 3,02 Å va 2,77 Å cho'qqilari alit (C_3S), 2,74 Å da belit (C_2S) va 4,90 Å va 1,79 Å cho'qqilari gidratatsiya mahsuloti bo'lgan portlandit ($Ca(OH)_2$), 9,66 Å va 3,56 Å cho'qqilarida etringit mavjudligini ko'rsatdi. Mixfor FlowCrete 49/2 qo'shimchali 7 kunlik namuna kaltsiy silikat gidratlari (C-S-H) cho'qqilari 3,01 Å va 3,29 Å, portlandit 2,61 Å va 4,84 Å cho'qqilari hosil bo'lishini, bu esa gidratatsiya reaksiyalarining qisman tugayotganini ko'rsatdi. 28 kunlik namunalarda C-S-H (3,00 Å va 3,20 Å) va portlandit (2,61 Å) cho'qqilarida o'sish kuzatildi, alit va belit cho'qqilarining intensivligi sezilarli darajada kamaydi, bu gidratatsiyaning rivojlanishini va yanada barqaror beton strukturasi shakllanishini ko'rsatdi.

Sika SF18 qo'shimchali 28 kunlik namunalarda C-S-H ning aniq o'sishini (3,22 Å va 3,92 Å) va portlandit (4,88 Å) miqdorining ko'payishini ko'rsatdi, bu superplastifikator ta'sirida gidratatsiyaning va fizik-mexanik xossalarning yaxshilanishini ko'rsatdi. Shunday qilib, Mixfor va Sika qo'shimchalaridan foydalanish gidratatsiya jarayonlarini samarali faollashtirdi, kaltsiy silikat gidratlarining shakllanishini tezlashtirdi va betonning mustahkamlik kabi xossalari yaxshiladi (6-rasm).



6-rasm. Qo'shimchasisiz va qo'shimchali namunalarning rentgen diffraktogrammasi:

- a) sement CEM I 42,5H; b) 28 kunlik Sika SF18 qo'shilgan namunalari;
 v) 7 kunlik Mixfor FlowCrete 49/2 qo'shilgan namunalari;
 g) 28 kunlik Mixfor FlowCrete 49/2 qo'shilgan namunalari.

Tolalarning beton matritsaga ta'sirini kompleks baholashda 12 mm uzunlikdagi, hajmiy miqdori bo'yicha 2% kiritilgan bazalt va polipropilen tolali mayda donali va og'ir fibrobetonning tarkiblari o'rganildi. Tolalarsiz nazorat tarkiblari qiyosiy tahlil uchun asos bo'lib xizmat qildi. Mayda donali fibrobeton uchun nazorat tarkibiga 420 kg sement, 1165 kg qum va 472 kg chaqiq tosh (5-10 mm fraksiya) kiritildi. Superplastifikatorlar (Sika SF18 va Mixfor FlowCrete 49/2) va tolalar bo'lgan tarkiblarda suv/sement nisbati 0,45-0,47 gacha kamaydi, zichlik 2407 kg/m³ ga yetdi, siqilishga bo'lgan mustahkamlik 52,0 MPa ni tashkil etdi, bu nazorat tarkibidan 35% yuqori ekanligini ko'rsatdi. Og'ir beton uchun uzunligi 12 mm bo'lgan bazalt tolalari (6,83 kg/m³) 2488 kg/m³ bo'lgan zichlik va 52,2 MPa bo'lgan siqilishga mustahkamlikni ta'minladi, bu nazorat tarkibidan 10% yuqori bo'ldi, egilishga bo'lgan mustahkamlik 6,8 MPa ga oshdi.


O'tkazilgan eksperimentlar natijalarini statistik tahlil qilish uchun ikki faktorli korrelyatsion regressiya usulida foydalanildi (7-rasm).

Fibrobeton namunalari egilishga bo'lgan mustahkamlikda (Y_{eg}) regressiya tenglamasi:

$$Y_{eg} = 6,80 + 1,12x_1 + 0,08x_2 - 0,05x_1^2 - 0,03x_2^2 + 0,02x_1x_2$$

Fibrobeton namunalari siqilishga bo'lgan mustahkamlikda (Y_{siq}) regressiya tenglamasi:

$$Y_{siq} = 50,60 + 0,60x_1 + 0,40x_2 - 0,15x_1^2 - 0,10x_2^2 + 0,05x_1x_2$$




7-rasm. 28 kunlik fibrobetonning siqilishga va egilishga bo'lgan mustahkamligining o'zgaruvchan omillarga bog'liqligi:

a) egilishga bo'lgan mustahkamlik; b) siqilishga bo'lgan mustahkamlik


Optimal tola uzunligi monolit qurilish uchun tarkiblarda samarali foydalanish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari bazalt tolasini uzunligining kompozitning mustahkamlik xossalari ta'sirini tasdiqladi. Optimal uzunlik mexanik xossalarni oshirib, matritsaga maksimal adgeziyani ta'minladi.

Eksperimental tadqiqot natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, bazalt tolasini kiritish fibrobetonning buzilish mexanizmlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Armaturalash jarayonida nazorat namunalarining bir vaqtda mo'rt buzilishidan farqli o'laroq, plastik deformatsiyalanish mexanizmi tufayli kechiktirilgan buzilishi kuzatildi.


Optimal tola uzunligi (12 mm) mustahkamlik xossalari eng yaxshi muvozanatini va matritsada bir xil taqsimlanishni ta'minladi. Uzunligi 6 mm bo'lgan tolalar yoriqlar rivojlanishini samarali ravishda to'xtata olmaydi va 18 mm uzunlikda hajmiy miqdorning oshishi aglomeratsiya kuzatildi, bu esa mexanik xossalarni yomonlashtirdi (8 va 9-rasmalar).




8-rasm. Mayda donali fibrobetonning tola uzunligiga nisbatan egilishga mustahkamlikning o'zgarish diagrammasi



9-rasm. Mayda donali fibrobetonning tola uzunligiga nisbatan siqilishga mustahkamlikning o'zgarish diagrammasi




10-rasm. Og'ir fibrobetonning tola uzunligiga nisbatan egilishga mustahkamlikning o'zgarish diagrammasi




11-rasm. Og'ir fibrobetonning tola uzunligiga nisbatan siqilishga mustahkamlikning o'zgarish diagrammasi

Og'ir fibrobeton uchun mo'rtdan plastik buzilishga o'xshash o'tish aniqlandi. Optimal tola uzunligi 12 va 18 mm bo'lib, bir xil taqsimlashni ta'minlangan holda, yorilishni kamaytirdi va mustahkamlik xossalarini oshirdi. 6 mm uzunlikdagi tolalar cheklangan mustahkamlovchi ta'siri tufayli samarasiz bo'lib chiqdi (10 va 11-rasmlar).


Tola miqdorining optimal diapazoni - 1,5-2,0% - qorishmalarning texnologik xossalarini saqlab, mustahkamlik xossalarini sezilarli darajada oshirishni ta'minladi. Shu bilan birga, bazalt tolalari polipropilen tolalar bilan solishtirganda mustahkamlikga nisbatan yaxshiroq ta'sir ko'rsatdi (12, 13, 14 va 15-rasmlar).




12-rasm. Bazalt tolasi miqdorining mayda donali fibrobetonning egilishga bo'lgan mustahkamligiga ta'siri



13-rasm. Bazalt tolasi miqdorining og'ir fibrobetonning egilishga bo'lgan mustahkamligiga ta'siri



14-rasm. Bazalt tolasi miqdorining mayda donali fibrobetonning siqilishga bo'lgan mustahkamligiga ta'siri



15-rasm. Bazalt tolasi tarkibining og'ir fibrobetonning siqilishga bo'lgan mustahkamligiga ta'siri

Mayda donali beton uchun 2,0% bazalt tolalari qo'shilishi egilishga mustahkamlikni 33% ga va siqilishga mustahkamlikni 10% ga oshirdi, bir xil tarkibdagi polipropilen tolalar esa mos ravishda 30% va 9% ga o'sishni ta'minladi. Xuddi shunday tendensiya og'ir betonda ham kuzatildi: bazalt tolalari egilishga mustahkamlikni 30% ga, siqilishga mustahkamlikni 9% ga, polipropilen tolalar esa egilishga mustahkamlikni 25% ga va siqilishga mustahkamlikni 8% ga oshirdi. Ushbu ma'lumotlar bazalt tolalari, ayniqsa, mayda donali betonda nisbatan armaturalovchi strukturani yaratishda samaraliroq ekanligini tasdiqladi. Fibrobetonning fizik-mexanik xossalari optimal dispers armaturalash parametrlari va ratsional tayyorlash rejimlarida o'rganildi (2 va 3-jadvallar).

2-jadval

1m³ mayda donali fibrobeton uchun materiallar sarfi


Tarkib	Sement (kg)	Qum (kg)		Qo'shimcha (kg)	Tolalar miqdori (кг)	Suv/Sem
		< 5mm	5-10			
2B.	377	1150	606	3,02	7,55	0,46
6B.	376	1155	606	2,96	5,55	0,46
2P.	377	1150	606	3,02	7,55	0,46
6P.	376	1155	606	2,96	5,55	0,46

3-jadval

1m³ og'ir fibrobeton uchun materiallar sarfi

Tarkib	Sement (kg)	Qum, (kg)	Chaqiq tosh (kg)	Qo'shimcha (kg)	Tolalar miqdori (kg)	Suv/Sem
2B.	341	779	1162	2,68	6,83	0,46
6B.	341	779	1168	2,68	5,02	0,46
2P.	341	779	1162	2,68	6,83	0,46
6P.	341	779	1168	2,68	5,02	0,46

Olingan natijalar fibrobetonning kirishish deformatsiyalariga va namlikning yo'qolishi hisobiga massa kamayishiga ta'sirini ko'rsatdi. Nazorat tarkibi (tolalarsiz) o'rtacha $1,378 \times 10^{-4}$ mm kirishishdagi deformatsiya va 120 kundan keyin -16,77 g vazn yo'qotishini ko'rsatdi, bu esa kuchli namlik yo'qotilishini aks ettirdi. Bazalt tolalari kirishishdagi deformatsiyalarini sezilarli darajada kamaytirdi. 1,5% tolali tarkib deformatsiyani $1,134 \times 10^{-4}$ mm (17,7% nazorat tarkibiga nisbatan past) va og'irligini -15,95 g gacha kamaytirdi, 2% tolalar miqdori bilan cho'kish $1,096 \times 10^{-4}$ mm (20,5% nazorat tarkibiga nisbatan past) va vazn yo'qotish -15,46 g gacha kamayishini ko'rsatdi (16-rasm).




16-rasm. Nisbiy kirishish deformatsiyalarining o'sish egri chiziqlari

Fibrobetonning ekspluatatsion xossalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, tolalarini kiritish uning suvga chidamliligi, muzlashga bardoshlilik va ishqalanishga qarshiligini sezilarli darajada oshiradi. Tolalarsiz namunalrning suvga chidamliligi W6-W8 sinflariga to'g'ri keldi, tolalarining qo'shilishi esa sement toshining tuzilishini, zichligini va tolalar adgeziyasini yaxshilanishi tufayli suvga chidamliligi W10-W14 ga oshdi.

